
MEHNAT YARMARKASI

Kishilarning turmush farovonligini oshirish, aholining, ayniqsa yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash bugun har qachongidan ham dolzarb tus olgan. Shahar hokimligi, prokuraturasi, davlat soliq inspeksiyasi, ichki ishlar bo'limi, iqtisodiy kompleks xodimlari, Yoshlar ittifoqi hamda bandlikka ko'maklashish markazi hamkorligida shahrimizdagi Akademik litseyda bo'lib o'tgan mehnat yarmarkasi ham shahrimizdagi ishsiz aholi, ayollar va uyushmagan yoshlar, jazo muddatini o'tab qaytganlar bandligini ta'minlashga qaratildi.

Unda shahrimizdagi 80 ta korxonalar, tashkilot va o'quv muassasalari 880ta bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etdilar. Tadbir davomida esa 200 nafar fuqaro muayyan korxonalar va tashkilotlarga ishga joylashtirilib, ularning mehnat bilan bandligi ta'minlandi.

Tolibjon ASOMUTDINOV,

shahar Bandlikka ko'maklashish markazi direktori.

2018-05-30 17:47:11